

TALABALARNING INNOVATSION FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA MUZEY MANBALARINING AHAMIYATI

I.T.Xalmuratov – tayanch doktorant

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti

Tayanch soʻzlar: darsdan tashqari mashgʻulotlar, innovatsion faoliyat, sanʼat muzeyi, muzey kolleksiyasi, amaliy-bezak buyumlar, ekspozitsiya zallari.

Ключевые слова: внеклассная работа, инновационная деятельность, художественный музей, музейная коллекция, практико-декоративные предметы, экспозиционные залы.

Key words: extracurricular activities, innovative activities, art museum, museum collection, decorative objects, exhibition halls.

Sanʼat asarlari bilan bevosita muloqotda boʻlish, ularni oʻrganish, qiziqish, ijodkorning hayoti, faoliyati, ish uslubining xususiyatlariga eʼtibor berish, tarixda mavjud boʻlgan har - xil uslublar, sanʼatdagi stil va oqimlarni oʻrganish, ularni ajrata bilish, ularning har birining oʻziga xosligini taniy olishi, taniqli musavvirlarning asarlarini yoddan bilish va bir koʻrganda ularni taniy olish, mualliflarni, asarlarni ajrata bilish- bu talabalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Dars va darsdan tashqari mashgʻulotlar jarayonida taniqli asarlarning reproduksiyalaridan, slayd va fotosuratlaridan foydalanish juda yaxshi natijalar beradi. Shu bilan birga koʻrgazma zallarida, muzey ekspozitsiya zallarida tomosha qilish ham innovatsion faoliyatni rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Chunki talabalar har bir asarni oʻrganish orqali ularda yangi gʻoyalar paydo boʻladi bu esa innovatsion faoliyatning rivojlanishiga zamin yaratadi.

Respublikamizda bu borada har xil tarixiy va sanʼat maskanlari mavjud boʻlib, talabalar, oʻquvchilar va tasviriy sanʼat oʻqituvchilari uchun bu joylar katta yordam beradi, ijodiy rivojlanishida yaxshi vosita sifatida ish koʻrsatadi. Shunday maskanlarning biri Qoraqalpogʻiston Respublikasi I.V.Savitskiy nomidagi davlat sanʼat muzeyi boʻlib, u yurtimizdagi boshqa muzeylar qatorida faoliyat yuritib kelmoqda. Muzey ochilganiga qirq yildan oshiq vaqt boʻlgan boʻlib, bu davr ichida ushbu dargohda bir qancha mutaxassislar, rassomlar, sanʼatshunoslar, sanʼat shaydolari oʻz bilimlarini boyitishga, eksponatlarni tomosha qilib, ular haqida asarlarning mualliflari hayoti va faoliyati, ular yashab ketgan davrdagi hodisalar, siyosat haqida, tasviriy sanʼat-uning turlari, stil va oqimlari, turli janrlari, ishlash uslublari, texnikasi, materiallari haqida, shuningdek muzey kutubxonasida toʻplangan boy materiallardan yozma manbalar sifatida foydalanishga va koʻplab maʼlumot yigʻishga imkon topganlar. Hozirgi kunda ham koʻplab talaba yoshlar muzey kutubxonasi va ekspozitsiya zallarida qoʻyilgan asarlarini oʻrganish bilan shugʻullanshadi shu asosda talabalarda innovatsion gʻoyalar payda boʻladi.

Muzey kolleksiyasi dunyoga mashhur kolleksiyalardan boʻlib, uning tizimida bir qator boʻlimlar mavjud. Muzeyga kelgan mehmonlar birma-

bir boʻlimlarga ajratilgan ekspozitsiyadagi eksponatlar bilan tanishadilar. Ayrim mutaxassislar nafaqat ekspozitsiyada qoʻyilgan, balki zaxiralarda saqlanib turgan bebaho eksponatlar bilan yaqindan tanishish imkoniga ega.

Muzey kolleksiyasi qoraqalpoq milliy amaliy sanʼati, hunarmandchilik boʻlimi, arxeologiya boʻlimi, tasviriy sanʼat boʻlimlaridan iborat. Oliy taʼlim yurtlarida dars va darsdan tashqari mashgʻulotlarda ushbu eksponatlar haqida maʼlumot berayotib shunday xususiyatlarga eʼtibor berish kerak, chunki ularni ajrata bilish katta ahamiyatga egadir.

Demak, dars va darsdan tashqari mashgʻulotlar mazmuniga kiritish uchun muzey materiallarini saralashda quyidagi talablarga asoslanish maqsadga muvofiqdir:

- Asarlarda bevosita Qoraqalpoq xalqining tarixi va anʼalarining aks etishi;

- muzey manbalarini tasviriy sanʼatdan davlat taʼlim standarti va oʻquv dasturiga mosligi;

- muzey manbalarini talabalarning badiiy-estetik ehtiyoji, talabi, qiziqishlariga muvofiqligi;

- muzey manbalarining talabalarda vatanparvarlik gʻoyalari haqida tushunchalarni kuchaytirishga qaratilganligi;

- muzey manbalarini talabalarning badiiy-estetik bilim, koʻnikma va malakalarini, innovatsion faoliyatini rivojlantirishga zamin boʻlishi va h.z.

Keltirilgan talablardan kelib chiqqan holda OTMda dars va darsdan tashqari mashgʻulotlarini amalga oshirish jarayonida muzey va sanʼatshunoslikka oid manbalar ikkita taʼlimiy yoʻnalishda – nazariy va amaliy tarzda olib boriladi. Umumiy holda sanʼat talabalarning bilim va malakalariga quyidagi talablar quyilishi mumkin:

- Mahalliy tarix va madaniyat yodgorliklarini, tosh, yogʻoch va monumental meʼmorlik obyektlari ichida badiiy qimmatiga ega boʻlganlarini bilish;

- mahalliy oʻlkashunos va badiiy muzeylar, ularning filiallaridagi ilmiy tadqiqot, madaniyat haqida bilish;

- mahalliy badiiy hunarmandchilik, amaliy bezak sanʼat boʻyicha xalq ustalarining ishlab chiqarish faoliyati haqida tushunchaga ega boʻlish;

- mahalliy badiiy hunarmandchilik va xalq sanʼat ustalari tomonidan qoʻllaniladigan ijodiy va kasbiy

faoliyat usullari, ya'ni yog'och o'ymakorligi turlari, suyak va tosh o'ymakorligi, kashtachilik, kulolchilik, zargarlik ishi, tabiat materiallaridan bezak narsalar yasash va boshqalar haqida tushunchalarga ega bo'lish;

- amaliy bezak san'atiga oid mahsulotlar ishlab chiqarish uchun professional kadrlar tayyorlaydigan mahalliy bilim yurtlarining faoliyati haqida tasavvur va tushunchaga ega bo'lish;

- shahar yoki alohida olingan viloyat, tumanning zamonaviy, badiiy– madaniy holati haqida tavsifnoma berish;

- mahalliy badiiy madaniyat yodgorliklari bilan mamlaktimizning tarixiy va madaniy yodgorliklari o'rtasidagi farqni aniqlash.

Ko'rinib turibdiki, tadqiq etilgan manbalar avvalo, muzey manbasi sifatida tabiatdan mahalliy xarakter kasb etadi. Qolaversa, ularning tarbiyaviy ahamiyati tasviriy san'at ta'limi mazmunining har bir komponentida yaqqol kuzatiladi. Shuning uchun ham muzey manbalaridan talabalarda innovatsion faoliyatni rivojlantirishda foydalanish har tomonlama qulay va samaralidir.

Badiiy ta'lim asosini o'rgatuvchi darslarida muzey manbalaridan foydalanish talabalarni innovatsion faoliyatni, shuningdek, ma'naviy madaniyat asoslari bilan qurollantirishda, shaxs uchun muhim bo'lgan bir qator sifatlarni rivojlantirishga yordam beradi.

Xalq san'atini o'rganishda bu tamoyillarni amalga oshirish yosh o'lkashunoslarda xalq amaliy bezak san'atining tarixiy rivojlanish yoli haqidagi tasavvurlarini shakllantiradi, «go'zallik qonuniyatlari» bo'yicha badiiy qadriyatlarni yaratgan xalq san'ati ustalarining ijodiy usullarining mohiyatini tushunishga yordam beradi. Xalq ustalarining badiiy buyumlari aniqligi, oddiyligi, mazmun va shakl birligi, ishlatiladigan materialning tentonik va dekarativ estetik xususiyatlarini tushunishi, bezaladigan predmet, narsa va boshqa konstruktiv o'ziga xosligi naqshlarning badiiy tizimiga mosligi bilan ajralib turadi. Xalq san'ati asarlarida dekorativ ifodalash plastika, koloritning me'yor hissi, proportsiya, ritm, takrorlanish, tasviriy va dekorativ elementlarning simmetrik va assimetrik tuzilishi usullari bilan tuslashadi.

Xalqning amaliy san'at namunalarini o'rganishda mahalliy xalq ustalarining ijtimoiy yo'nalishini aniqlash, yakka va jamoa bo'lib bajariladigan ishlarning o'lka tabiati bilan chambarchas bog'likligi o'ziga xos jihatlarini belgilaydi, shuningdek, xalqning yashash tarzini va urf-odatlarini ham mujassamlashtiradi. Talabalar manbalarni o'zlashtirish jarayonida naqsh elementlarining kelib chiqishini va qo'llanilishini aniqlab, amaliy san'at va qo'l hunarmanchiligi haqidagi bilimlarini oshirib boradi. Masalan, bu xalq xo'jalik buyumlarining nafis did bilan shakllarning estetik jihatdan muayyan bir

shaklga kelishini har bir davrga mansub xalq xo'jalik buyumlarida ko'rishimiz mumkin. Uning tashqi ko'rinishini naqsh element kompozitsiyalari bilan to'ldirilib borishining har bir davrga mansub o'zgachaligi bor. Shuningdek, bu bezak naqshlarining takomillashib borishi esa, xalqning estetik didining o'sganligidan dalolatdir. Bu esa o'z navbatida xalqning tarixini ham belgilab beradi.

Talabalarining muzeydagi amaliy-bezak buyumlar bilan tanishishi ularda xalq ustalarining ijodiy mehnatidan zavqlanish tuyg'usini uyg'otadi, turli xil materiallarni badiiy ishlash malaka va ko'nikmalarni egallashiga yordam beradi.

Yuqoridagilardan amin bo'ldikki, bo'lajak arxitektorlarning innovatsion faoliyatini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili, shuningdek, amaliy ish tajribalar natijalari bu borada quyidagilar alohida ahamiyat kasb etishni ko'rsatdi: model bo'lajak arxitektorida innovatsion faoliyatni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish; Qoraqalpoq milliy amaliy san'atiga oid elektron qo'llanmani yaratish; innovatsion texnologiyalar muhitida bo'lajak arxitektorlarda xalq amaliy san'atiga oid innovatsion faoliyatni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zarur.

Keltirilgan vazifalarni amalga oshirish uchun quyidagi tavsiyalarni beramiz: fan-texnika va texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari va ularning amaliy ahamiyati haqidagi ma'lumotlar bazasi hamda uni muntazam ravishda takomillashtirilib borish imkoniyatiga ega bo'lish; bo'lajak arxitektorlarda xalq amaliy san'atiga oid innovatsion faoliyatni rivojlantirishga mos keluvchi pedagogik texnologiyalar bazasiga ega bo'lish; turli amaliy san'at elementlariga mos keluvchi didaktik vositalar bilan munosabatda bo'lish haqidagi ma'lumotlar bazasi va metodik ta'minotni tashkil etish va ulardan texnologik jarayonni olib borishda (bilim, ko'nikma va malakalardan amaliy faoliyatda foydalanishda) foydalana olish; yangi innovatsion ishlab chiqarishning ilmiy asoslari bilan tanishish; texnik obyektlar bilan texnologik jarayonlar asosida amaliy ko'nikmalar ega bo'lish; arxitektor kasb egasi uchun zarur bo'lgan har- xil shaxsiy xislatlar, fazoviy bilim, naqqoshlik, amaliy bezak san'ati, arxitektorlik va dizaynerlik qobiliyatlariga esa bo'lishi kerak.

Bo'lajak arxitektorlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishda muzey manbalari asosida rivojlantirish bosqichlari:

1- bosqich. Bo'lajak arxitektorlarning innovatsion faoliyatini muzey manbalari asosida rivojlantirishda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish jarayonida malaka talablarini bajarishga qaratilgan harakatlar majmuasi deb qaraladi va innovatsion faoliyatning kamida ikkita komponentini o'zlashtirib olishi.

2- bosqich. Bu bosqichda bo'lajak arxitektorlarda muzey materiallari asosida innovatsion faoliyatini rivojlantirish uchun ko'nikmalarni o'zlashtirish hamda o'zida innovatsion faoliyatning kamida uchta komponentini puxta o'zlashtirib olishi.

3- bosqich. Mazkur bosqichda bo'lajak arxitektorlar o'zining faoliyatini tanqidiy tahlil qilish; vaziyatlarga nostandart yechimlar topish; pedagogik yangiliklarni o'zlashtirish; amaliy faoliyatida qo'llay olish; ilmiy-metodik adabiyotlardan foydalanish; zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish; ko'nikmalariga ega bo'lishi hamda metodik faoliyatning kamida to'rttasini puxta egallashi kerak.

4- bosqich. Ushbu bosqichda o'quv jarayoni davomida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarning tub mohiyatini anglash, kasbiy kompetentsiyalarni innovatsion oshirish, zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanib, nostandart o'quv mashg'ulotlarini ishlab chiqish va o'tkazish kabilar nazarda tutiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, bo'lajak arxitektorlarning innovatsion faoliyatini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirish borasida olib borilgan tadqiqot ishlari tahlili, shuningdek, amaliy ish tajribalar natijalari bu borada quyidagilar alohida ahamiyat kasb etishni ko'rsatdi: model bo'lajak arxitektorida innovatsion faoliyatni milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishning nazariy asoslarini ishlab chiqish; Qoraqalpoq milliy amaliy san'atiga oid elektron qo'llanmani yaratish; innovatsion texnologiyalar muhitida bo'lajak arxitektorlarda xalq amaliy san'atiga oid innovatsion faoliyatni rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish zarur. Demak, bo'lajak arxitektorlarning innovatsion faoliyatini milliy qadriyatlar asosida rivojlantirishning pedagogik asoslariga tayanib aytishimiz mumkinki, ilm-fanning rivoji bevosita ta'lim tizimiga ham bog'liqdir.

Adabiyotlar

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 14 август 2018 йилдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида” ПФ-5847-сон Фармони. <https://lex.uz>

2. Уразимова Т.В. Предварение традиционного национального художественного наследия в произведениях каракалпакских художников. Автореф. дис...на соиск.уч.степ. канд. искусств. -Т.: 1993. – С.24.

3. Аляминов Х.И. Таълим мазмунида ўлкашунослик. // “Халқ таълими”. 2001. №6. 63-64-б.

REZYUME. Mazkur maqolada dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar jarayonida muzey kolleksiyasidagi taniqli asarlarning reproduksiylaridan, slayd va fotosuratlaridan foydalanish juda yaxshi natijalar berishi, ko'rgazma zallarini, muzey ekspozitsiya zallarini tomosha qilish bo'lajak arxitektorlarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyati va rivojlantirish bosqichlari yoritib beriladi.

РЕЗЮМЕ. В данной статье освещается, как использование слайдов и фотографий, репродукций из известных произведений из музейных коллекций в процессе урочных и внеурочных занятий дает очень хорошие результаты. Также рассматривается значение посещения выставочных залов и музейных экспозиций в развитии инновационной деятельности будущих архитекторов и описываются этапы этого развития.

SUMMARY. In this article, are highlighted the use of reproductions, slides and photographs of well-known works from the museum collection in the course of lessons and extracurricular activities gives very good results, the importance of viewing exhibition halls, museum exposition halls in the development of innovative activities of future architects and the stages of development.

KIMYO FANINI O'QITISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHDA SUN'IY INTELEKTDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

X.N.Xasanova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent*

Navoiy viloyati pedagogik mahorat markazi

Tayanch so'zlar: sun'iy intellekt, kompyuter texnologiyalari, aqlli ta'lim, topshiriq, texnologiya, ijodkorlik, tezkorlik, dastur, gadget, proctoring.

Ключевые слова: искусственный интеллект, компьютерные технологии, интеллектуальное образование, назначение, технологии, творчество, скорость, приложение, гаджет, прокторирование.

Key words: artificial intelligence, computer technology, intellectual education, purpose, technology, creativity, speed, application, gadget, proctoring.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 17-dekabrda "Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilga qadar rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida" PQ-358-son qarorida ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida sun'iy intellekt

texnologiyalarini joriy qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizning sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanuvchi dunyoning yetakchi davlatlari qatoriga kirishiga erishish, shuningdek, "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasida bel-